

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT: SOHAGA OID MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR

Salimov Islombek Bobir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

islombek.salimov2000@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi O'zbekistonda elektron tijoratning umumiy holati ko'rib chiqiladi. Uning iqtisodiyotdagi rolga baho beriladi. Shuningdek, uning mamlakatda rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar va takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Elektron tijorat, onlayn savdo, raklama, internet-reklama

Bugungi internet asrida elektron tijorat an'anaviy savdoni quvib o'tib, jahon iqtisodiyotining asosiy segmentiga aylanib ulgurdi. Fikrimizning tasdig'i o'laroq aytadigan bo'lsak, 2022-yilning o'zida elektron tijorat butun jahon savdosining 19 foizini tashkil etdi. Mutaxassislar fikriga ko'ra esa 2027-yilga borib bu dunyodagi barcha savdolarning kamida 25 foizini tashkil etishi kutilmoqda[1]. Albatta, bu narsa elektron tijorat an'anaviy savdodan farqli o'laroq, iste'molchilarga tovar va xizmatlar haqidagi real vaqt rejimidagi ma'lumotlarni taqdim eta olishi bilan bog'liqdir. Shu sababli ham hozirgi paytda nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki rivojlanayotgan davlatlarda ham elektron tijoratni tartibga solish va u bilan bog'liq qonunchilik bazasini takomillashtirish dolzarb masala bo'lib turmoqda.

O'zbekistonda ham elektron tijorat iqtisodiyotning muhim sohalaridan biri sanaladi. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2022-yilda elektron tijorat hajmi o'tgan yilgiga nisbatan 2 barobarga o'sib, barcha chakana savdolar hajmining 4 foizini tashkil etdi[2]. 2027-yilga borib esa uning 6-7 baravarga kengayishi va 1,8-2,2 mlrd dollarga yetishi mumkinligi prognoz qilinmoqda[3]. Mazkur raqamlar ham uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi rolidani dalolat beradi. Shuni hisobga olgan hukumat tomonidan milliy qonunchiligimizda elektron tijoratni, u bilan bog'liq yangi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, zamon talablariga javob bermaydigan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirib borish bilan bog'liq chora-tadbirlar izchil amalga oshirib borilmoqda. Xususan, 2022-yilda yangi tahrirdagi "Elektron tijorat

to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, uning amal qilish sohasi kengaytirildi. 2019-yilda esa "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, bu elektron tijoratda onlayn to'lovlarni amalga oshirish mexanizmini yanada soddalashtirib, iste'molchilar mablag'larining xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Ammo yuqoridagi o'zgarishlarga qaramasdan sohada haligacha bir qator muammolar mavjud bo'lib, bu elektron tijorat rivojlanishida muhim to'siq bo'lib qolmoqda:

Birinchidan, internetga ulanishning cheklanganligi. Ya'ni O'zbekistondagi ba'zi chekka hududlar aholisi orasida internet umuman mavjud emas yoki sifati juda yomon. Sifatsiz aloqaning mavjudligi esa foydalanuvchilar sonini cheklab, elektron tijorat kengayishiga to'siq bo'lmoqda.

Ikkinchidan, aholining elektron tijorat bo'yicha huquqiy ongi past. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatdagi ko'plab aholi, ayniqsa qishloq joylarida istiqomat qiluvchi aholi onlayn savdo, elektron tijorat borasida juda kam darajadagi ma'lumotga ega. Bu ham, albatta, soha rivojlanishiga to'siqdir.

Uchinchidan, sohaga doir qonunchilik bazasidagi bo'shliqlar. Elektron tijoratni tartibga solishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, bir qator ijtimoiy munosabatlar, xususan, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, onlayn savdoda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish, kripto-valyutalar oldi-sotdisi kabi masalalar haligacha to'liq tartibga solinmagan.

To'rtinchidan, elektron tijoratda tovar va xizmatlarning cheklanganligi. Elektron tijorat qanchalik qulay bo'lmasin, unda an'anaviy bozorga o'xshagan deyarli barcha turdagi tovarlarni topish imkonsiz. Ya'ni uning ko'lami hali an'anaviy bozor darajasiga yetgani yo'q. Bu esa iste'molchilarning tanlov imkoniyatini cheklaydi.

Beshinchidan, kiber tahdidlar bilan bog'liq muammolar. Elektron tijorat o'sib borgani sari undagi kiberxavfsizlikka tahdid ham oshib boradi. Bu tahdidlar ko'pincha fishing, ma'lumotlarning sizdirib yuborilishi, firibgarlik orqali pul mablag'larine o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Mazkur holatlar shubhasiz iste'molchilarda elektron tijoratga bo'lgan ishonchni kamaytiradi.

Biz quyida keltirmoqchi bo'lgan takliflar esa yuqoridagi muammolarni yechishda, shuningdek elektron tijorat rivojlanishida ham yordam beradi deb o'ylaymiz:

1-taklif. Aholining, ayniqsa qishloq joylarida yashovchi aholining internetga kirishini ta'minlash zarur. Bundan tashqari mazkur texnologiyalarga keng ko'lamda sarmoya kiritish maqsadga muvofiq. Albatta, bunda internetning yuqori tezlikda bo'lishiga e'tibor berilmog'i lozim.

2-taklif. Iste'molchilarning elektron tijorat bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirish uchun muayyan ta'limiy dasturlarni yo'lga qo'yish kerak. Bu narsa ularga elektron tijorat, undan foydalanish, onlayn to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha ko'niklamarni shakllanishda yordam beradi.

3-taklif. Sohani tartibga solishga qaratilgan aniq va maxsus normalarni ishlab chiqish, shuningdek elektron tijoratni nazorat qiluvchi maxsus vakolatli davlat organini ta'sis etish maqsadga muvofiqdir. Bu elektron tijoratda huquq normalarning samarali tarzda ishlashiga o'z hissasini qo'shadi.

4-taklif. Elektron tijoratda iste'molchilar ma'lumotlarini himoya qilish va onlayn o'tkazmalar xavfsizligini ta'minlashni kuchaytirish, bu borada qat'iy belgilangan qoidalarni joriy etish kerak. Firibgarliklarni oldini olish, bu bo'yicha yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha mexanizm ishlab chiqish kerak. Shundagina iste'molchilarda elektron tijoratga bo'lgan ishonch ortadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan umumiy qilib xulosa qiladigan bo'lsak, elektron tijorat hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda savdo sohasiga oid milliardlab dollarlik shartnomalar aynan raqamli dunyoda sodir bo'lmoqda. O'zbekistonda ham elektron tijorat shiddat bilan rivojlanmoqda. Bu esa sohaning taraqqiy etishi bilan birga unda yangi ijtimoiy munosabatlarni paydo qilib, ularni huquqiy jihatdan tartibga solish masalasini dolzarb masalaga aylantirib qo'ymoqda. Elektron tijoratni tartibga solishda muayyan qonunchilik bazasi mavjud bo'lishiga qaramay sohada biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek bir qator muammolar haligacha mavjud. Ushbu tezisda bildirilgan taklif va yechimlar esa muammolarni hal qilishda yordam beradi degan umiddamiz.

REFERENCES:

1. <https://www.statista.com/statistics/534123/e-commerce-share-of-retail-salesworldwide/#:~:text=In%202022%2C%20e%2Dcommerce%20accounted,of%20total%20global%20retail%20sales>.
2. O'zbekistonda elektron tijorat qanday rivojlanmoqda? — [Daryo Yangiliklari](#)
3. O'zbekistonda elektron tijorat bozori 2027-yilga borib 6–7 baravar kengayishi kutilmoqda — KPMG – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz